



Received: April 5, 2022
Accepted: June 20, 2022
Available online: June 25, 2022

Normurod Avazov

Filologiya fanlari nomzodi, Toshkent davlat san'at va
madaniyat instituti dotsenti
Toshkent, O'zbekiston

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY G'OYALARINING IZDOSHLARI ASARLARIDAGI TALQINLARI

ANNOTATSIYA

Maqolada Behbudiyning "Padarkush" va boshqa asarlari Abdulla Qodiriy asarlari bilan qiyoslab o'rganilgan. "Padarkush" ta'sirida yozilgan Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" dramasi alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ikki buyuk ijodkor publitsistik asarlari ularning yozilishi bilan bog'liq masalalar bilan yonma-yon tahlil etilgan. Adabiyotshunoligimizda Behbudiyni yangi o'zbek adabiyotining tamal toshini qo'ygan ijodkor sifatida baholanadi. Uning "Padarkush" dramasi birinchi o'zbek fojiasi (tragediyasi) sifatida e'tirof etilgan. Ushbu dramada Turkiston zaminida xonliklar davridagi hunrezliklar, otaga nisbatan nafratning og'ir oqibatlar, farzandning o'z otasi qotili bo'lishgacha borgan jonli tasvirlangan.

O'zbek adabiyotining ravnaqiga beqiyos xizmat qilgan jadid mutafakkirlardan yana biri – Abdulla Qodiriydir. Abdulla Qodiriyning publitsistik merosi ham nihoyatda boy va mazmunli. "Shodmarg", "Saylovmi, bosqunchilikmi?", "Bizda teatru ishinig borishi", "Bozor surishtirmaydir", "Mochalov", "Qurbonlik o'g'irlari" kabilar shular jumlasidandir. Milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy meros deganda ko'p masalalarni tushunamiz va anglaymiz. Bularning eng asosiysi esa bizningcha, bu – o'zbek adabiyoti, qolaversa, jadid davri adabiyotidir. Har bir xalq o'zining milliy tarixi, milliy an'analari, milliy madaniyati va milliy ma'naviyatini ifodalashi bilan qimmatlidir.

Ko'pchilik adabiyotshunoslarimizni Abdulla Qodiriyning Behbudi haqida yozmagani, xotiralar qoldirmagani o'ylantiradi. Millat fidoyilari bo'lgan bu ikki buyuk siymoning faoliati va ijodidan bunga javob topish mumkin. Muallif ikki buyuk ijodkor haqida ilmiy jarayonda hali aytilmagan ma'lumotlarni yetkazishni o'z oldiga

Normurod Avazov

Candidate of Philological Sciences, Associate
Professor, Tashkent State Institute of Art and Culture
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: normurod.avazov.63@mail.ru

INTERPRETATIONS OF MAHMUDKHOJA BEHBUDI'S IDEAS IN THE WORKS OF HIS FOLLOWERS

ANNOTATION

In the article "Padarkush" Behbudi and other works are compared with Abdullah Kadiri's works. Particular attention is paid to Abdullah Kadiri's drama "The Unfortunate Groom", written under the influence of "Padarkush". The journalistic works of two great creators and issues related to their writing are also analyzed. In our literary criticism, Behbudi is regarded as the creator having laid the cornerstone of the new Uzbek literature. His drama "Padarkush" is recognized as the first Uzbek tragedy. This drama vividly depicts the atrocities of the khanates in the land of Turkestan, the grave consequences of hatred for the father, the murder of his own father by a child.

Abdulla Kadiri is one of the modern thinkers who made a huge contribution to the development of Uzbek literature. Abdullah Kadiri's journalistic heritage is extremely rich and significant. Among them are "Shodmarg", "Elections or invasion?", "The course of theatrical work in us", "The market does not ask", "Mochalov", "Sacrifice of thieves". We understand and appreciate a number of issues when it comes to our national values and spiritual heritage. The most important of them, in our opinion, is the classic Uzbek literature, and the literature of the modern period. Each nation is valuable because it expresses its national history, national traditions, national culture and national spirituality in the works of art.

The fact that Abdullah Kadiri did not write about Behbudi and did not leave any memories surprises most of our literary critics and makes them search for certain reasons. The answer to this can be found in the activities and works of these two great figures, devoted to the nation.

maqsad qilib qo'ygan.

Behbudiy va Qodiriyning o'lkada ma'rifatsizlikdan qutilish va milliy g'oyani ilgari suruvchi millat taqdirini hal qilishga qaratilgan fikrlarini tahlil etgan. Qodiriy ijodiy faoliyatida Behbudiy qarashlarining davom ettirilganligini asoslab bergan. Buning uchun tavsiflash hamda qiyoslash metodlaridan foydalangan.

Kalit so'zlar: meros, drama, milliy, siymo, ta'sir, publitsistika, teatr, jadid, faoliyat, maqsad, qadriyat, ustoz.

The author of the article has decided to set a goal to provide an information about two great artists who have not yet been analyzed in the scientific research.

The article presents the views of Behbudi and Kadiri, aimed at deciding the fate of the nation by promoting the national idea and getting rid of ignorance in the country. Kadiri substantiated the continuation of Behbudi's views in his work. To do this, the researcher used descriptive and comparative methods.

Key words: heritage, dramaturgy, national, image, influence, journalism, theater, modernity, activity, goal, value, teacher.

KIRISH

Behbudiy tomonidan aytilgan mashhur "Moziy – istiqbolning tarozisidir" [Behbudiy M., 1913; 1] va Abdulla Qodiriyning "Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar [Qodiriy A., 2019; 3] degan fikrlari o'rtasidagi bog'liqlik bir tasodif emas, aksincha, bu ikki sharif zotning kelajakka bo'lgan murojaati edi. Shu jihatdan bu ikki siymoning ijodiga murojaat qilish, ularni o'rganish va taqqoslash ham xayrli ishdir.

Topqirlik, jo'shqinlik, nozik tuyg'ular, jasorat, islohot uchun kurash – Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdulla Qodiriy ijodni yagona maqsadlarga birlashtirib turadi.

Behbudiy Turkiston o'lkasida ma'rifatsizlikdan ota qotiliga aylanib borayotgan farzandlarning tarbiyasini birinchi o'ringa qo'ydi. U qadimiylar va mustamlakachilar sirtmog'idan faqat ma'rifiy yo'l bilangina qutilishning tamoyillarini ishlab chiqdi. Uning "Padarkush"i [Samoylovich A., 1917; 4] o'lkada mavjud tarbiyasizlik illati uchun tipik asar bo'lgan bo'lsa, A.Qodiriy ham "Padarkush"ning orqasidan "Baxtsiz kuyov"ni yozdi (1915) [Rizayev Sh., 1997] yozdi.

ASOSIY QISM

Turkiston o'lkasida xalqning ma'rifatsizligi orqasidan yoshlar xatolarga yo'l qo'yayotgan bo'lsa, Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov"ida o'lkada mavjud bo'lgan illat – orzu-havas deb yoshlar hayotini qurbon qilishi o'zbeklar hayotidagi tipik xususiyat sifatida tasvirlanadi.

Abdulla Qodiriy – o'zbek adabiyotining buyuk namoyandasi. Adib o'z ijodini 1913-1914- yillarda boshlagan. Dastlab she'rlar ham yozgan. Muallifning butun ijodida millat va uning kelajagi, milliylik aks etib turadi. Jumladan, uning "Ahvolimiz" [Qodiriy A., 1915; 9], "To'y" [Qodiriy A., 1915; 8], "Millatimga bir qaror" [Qodiriy A., 1915; 10], "Fikr aylag'il" she'rlari mavjud. "Fikr aylag'il" she'ri Behbudiyning "Oyina" jurnalida 1915-yil (12-son) bosilib chiqqan [Qodiriy A., 1915; 11]. Bu ham tasodif emas. Ikki buyuk ijodkorning munosabatini ko'rsatadi. Shuningdek, "Millatimga bir qaror" she'ri millatga xitobnoma tarzida bitilgan.

*Kel ey, millat, bu kun bir maslahat birlan qaror o'lsun,
Bu kundan o'tgan ishlarga pushaymon birla or o'lsun,
Qilaylik bul kuni g'ayrat hama birdan qilib himmat,
Jaholat cho'l sahrosiga min'bad sabzavor o'lsun.*

Abdulla Qodiriy millatga qarata xitob qilib, bu kundan e'tiboran maslahalashib bir qaror qilinsinki, o'tgan ishlarga pushoymon qilmasdan, birlashib, himmat qilaylikki, ishga g'ayrat bilan kirishaylik, cho'l sahrosidagi jaholat ham gullagan maydonga aylansin, – deydi.

*Ayashmay kumush-oltunni hama boyonlar aslo,
Solub dorulfununlar ham makotiblar hazor o'lsun.
O'qushsun millat avlodi bizni doim duo aylab,
Qilib tahsil ulumlarni fununa yaxshi yor o'lsun.*

Millat uchun kumush-oltinlarni ayamasdan ishlatib, ular uchun maktablar va dorulfununlar barpo etib, millat ahli unda o'qib, fanlarni o'rganib, bizni har doim duo qilsinlar. Ularning tahsillari o'zlariga, millatga buyursin.

A.Qodiriyning “To'y” she'ri hajviy usulida yozilgan va unda zamona kulfati, millatning loqaydligi, mustamlakachilik illatlari qoralanadi. To'y boy va badavlatlar uchun pisand bo'lmasa-da, millat vakillari ya'ni beva-bechora hamda mehnat ahllari uchun fojiaga aylanayotganligi aytiladi.

A.Qodiriyning “O'tgan kunlar” romanida ibtidosida “Mavzuni moziydan, yaqin o'tgan kunlardan, tariximizning eng kir, qora kunlari bo'lgan keyingi “xon zamonlari”dan belgiladim” deydi [Qodiriy A., 1985; 3]. Bunday deyishiga sabab –ayni davrda o'lkada chor bosqinchilari va mahalliy amaldorlarning zulmi kuchaygandan-kuchaygan edi. Romanda milliylik masalasi birinchi o'rinda turadi. Millatning taqdiri masalasi roman mavzusining negizini tashkil etadi. Bosqinchi mustamlakachilarning maqsadi – o'z manfaatlari va boylik orttirish va millatni zalolatda qoldirish edi. Bunga asarda ham e'tibor qaratilgan. Romanning “Qipchoqqa qirg'in”i deb nomlangan uchinchi bo'lmidagi quyidagilarni o'qiymiz: “Yolg'iz o'z manfaati shaxsiyasi yo'lida, bir-birini yeb ichgan mansabparsat, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi. Biz shu holda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv quyadigan bo'lsak, yaqindirki, chor istibdodi Turkistonimizni egallar va biz bo'lsak o'z qo'limiz bilan kelgusimizni o'ris qo'lga qoldirgan bo'larmiz. O'z naslini kofir qo'lga tutqun qilib topshiruvchi – biz ko'r va aqlsiz otalarga xudoning la'nati albatta tushar, o'g'lim!” [Qodiriy A., 1980; 301]. Bunday misollarni romanda ko'plab uchratamiz. Shuni alohida ta'kidlash joizki, roman yetuk milliy asar ekanligi, uning milliy sharoitni, urf-odatlarini, milliy qadriyatlar va milliy qahramonlarni yoritganligiga olimlarimiz ko'proq e'tibor berib keldilar. Asar ning mustabid tuzum ta'sirida yozilganligiga va shu tomondan uning millatga bo'lgan ta'siriga ham e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yana bir narsani ta'kidlash zarurki, roman qatag'onlik va sho'rolar qatag'onligi, qolaversa, mustaqillik yillarida nashr qilib kelinmoqda. Roman matnlarida turli davrlarda “ulug'

millat”ga tegib ketadigan joylarning matniga o’zgartirish kiritilgan holatlarni kuzatish mumkin. Jumladan, yuqorida keltirilgan matndagi “chor istibdodi Turkistonimizni egallar” jumlasini o’rnida asliyatda “o’ris istibdodi o’zining iflos oyog’i bilan” [Qodiriy A., 2019; 352] kelganini ko’ramiz.

A.Qodiriyning publitsistik ijodi o’rganilganda, millat va uning taqdiri bilan bog’liq mavzularga hamohanglikni, dadillik va topqirlikni, muammolarni hal etishga qaratilgan kuchli tanqidiy fikrlarni, Behbudiy boshlab bergan Turkistonni islohatlarga aylantirish g’oyasi amaliy jihatdan maydonga chiqqanligini anglash mumkin. Ularda mustamlakchilik davridagi shafqatsizliklar ham ochib tashlanadi. Jumladan, “Saylovmi, bosqinchilikmi?” [Mazlun, 1917; 4], “Qimmatchilik hasrati” [Julqinboy, 1919], “Dumbasi tushub qolgan emish” [Julqinboy, 1919], “Tilanchilik yoxud yengil kasb” [Julqinboy., 1919], “Azob boqchasida yig’i-sig’i kechasi” [Julqinboy, 1919], “Qazoyi osmoniylar” [Julqinboy, 1919], “Haqiqat – ochib so’zlashdadir” [Julqinboy, 1919], “Qurbonlik o’g’rilari” [Julqinboy, 1919], “Mochalov” [Julqinboy, 1922], “Layli va Majnun” [Julqinboy, 1922; 154], “Dardi yo’q kessak” [Julqinboy, 1923], “Kalvak Maxzumning xotira daftaridan” [Julqinboy, 1923] kabilar shular jumlasidandir.

A.Qodiriyning “Mochalov” nomli (kichkina feleto’n-muallif) asari ayni davrning voqeasini real ko’rsatib berishi bilan alohida ajralib turadi. Ushbu asar nima uchun “Mochalov” deb nomlangan? Mochalov – chor Rossiyasining generali. Bosqinchilik davrining shafqatsizlikda tengi yo’q jallodi. Muallif u generalni “qahramon” qilib olgan. Uni butun Turkiston o’lkasida yetti yoshdan yetmish yoshgacha hamma tanigan. Taniganda ham qo’rqqani bois tanigan. Chunki, uning zolimligidan “homilalik xotunlar bola tashlar, yig’loq bolalar yig’idan to’xtar, dag’dag’ali zolimonangni tatig’an benovalar dir-dir qaltirar edilar”. Millatga zulm o’tkazgan, mahalliy xalqni tahqirlab kelgan. Mochalov mardikorlikka olingan bolalarini xizmatdan bo’shatilishini so’rab borgan millat vakillarini (xalqni) o’qqa tutib qirib tashlaydi. Uch mingdan ziyod millat vakillari talabi bilan Arxip Mixayil Mochalov ayblovchi Akmal Ikromov guvohligida sud qililib, otuvga hukm etilgan. Muallif yozadiki: “Albatta, qo’msaysan. Boshqalarini qo’msamasang-da, iftrovoy gildi (boylikka qarab beriladigan daraja) ko’paslar mehmonxonasida yegan palovlaringni, norinlaringni qo’msaysan. Pudratchilar, zavodchilar uylarida ichkan aroqlaringni, hafta sayin qozilardan kelib turatg’an paketlarni, ayniqsa, 1916-yil rabochiy voqeasida davlatxonangga arz-dod uchun borg’anlarni otib, gunohsiz qonlarni suv o’rnig’a ichishlaringni qo’msaysan!. Falakning gardishi qurib, uyi kuysunki, saning mash’um kunlaringni qaytub kelmaslik etub, tuzatdi” [Qodiriy A., 2017; 153].

Maxmudxo’ja Behbudiy va Abdulla Qodiriyning publitsistik ijodida hamohanglikni ko’rish mumkin. Behbudiy Turkistonda saylov mavzusiga ko’p marta murojaat qiladi. Ayni paytda, mavjud bo’lgan mustamlakachilarning yuqori organi sifatida дума faoliyat olib borardi. Davlat ahamiyatiga molik barcha masalalar dumada ko’rib chiqilgan. Shuning uchun ham Behbudiy matbuotlarda millatning kelajagi uchun дума xususida ko’plab muammolarni ko’tardi. Uning “3-dumaning aladdul ehtirom musulmon fraksiyasi rijoli mujohidlari majlislarina”, “2-duma fraksiyasi islomiyaning xizmat oliylarina “Ifoda”, “F” Duma xususida”, “Loyiha – proyek”,

“Saylov haqida”, “Saylangan mansabdor shaxslarning tasdiq qilinishi haqida”, “Gasudarstvennoy дума vakillari xususida”, “Duma va Turkiston” maqolalari aynan saylov va дума faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq. Uning “Saylov haqida” maqolasida Samarqand hududi bilan bog‘liq saylovlarning natijalari tahlil qilinadi. Maqolada Samarqand uyezdi hokimligiga, bo‘lis boshqaruv rahbarlik lavozimiga, shu uyezning qozilik mansablariga saylov o‘tkazish tartiblari yoritiladi. “Janob uyezd hokimi hurmatlik polkovnik Chertov baldamizni barcha ellikboshilari borasig‘a qilgan nasihat va nutqi xayriyalari ta’sirli va yaxshi natijali bo‘ldi. Nutqlarini moliy tergov ko‘rmagan, boinsof mullo odamlarning saylanmoqlarig‘a amir edi”. Ko‘rinadiki, chor hukumati vakili дума saylovida ishtirok etmoqda. U harbiy lavozimdagi polkovnik, uyezdning boshlig‘i sifatida qayta saylanmoqda. Mustamlakachilik tizimidagi yozilmagan qonunlarga ko‘ra imperiya tomonidan ko‘rsatilgan vakil albatta saylovda g‘oliblikni qo‘lga kiritishi kerak bo‘ladi. Go‘yoki, saylov xalqning ko‘zida o‘tkazilib, ammo amalda harbiy boshqaruv joriy etilgan edi.

Behbudiyning “Saylov haqida”gi turkum maqolasining davomi 1903-yilning 10-sentabrida “Turkiston viloyatining gazetasi”da e’lon qilindi. Bu safar maqolada uyezd boshliqlari va qozilik lavozimiga saylov o‘tkazish hamda uning natijalari tahlil qilinadi. “Uezdimizni murakkab bo‘lg‘uvchi ba’zi s‘yezdlarig‘a barkamol qozi ko‘rilmaydur. Bo‘listlarda qozilik va darsgo‘ylik qilib to‘rg‘uvchi mullolar bordur, onlar o‘zlari talab va harakat qilmaydurlar, holbukim, bu nafroti arbaa qazo mansabining idora etmoqindan ojizdurlar. Azbaski, ilmi shariat va ham Turkiston muzofatig‘a joriy etilgan nizomlaridan kullisi bexabardurlar”, deb uyezd boshliqlari va qozilarni tanqid ostiga oladi. Barkamol, chuqur ilmga ega bo‘lgan qozilarning ko‘rinmasligi, ularning qotib qolganligi, ularning shariat va joriy bo‘lgan yangi nizomlardan bexabar bo‘lganliklari talablarga javob bermasligini aytadi. Behbudiyning qozilarning pul sarflab, “qozilik mansabig‘a falon 10.000 tanga sarf ayladi, bo‘lustnoylikg‘a falonning 10.000 yo 30.000 tangasi sarf o‘lundi va ellik boshilarga taqsim qilindi”, deydi.

Abdulla Qodiriyning 1917-yil 4-avgustda “Ulug‘ Turkiston” gazetasida “Saylovmi, bosqinchilikmi?” maqolasi Mazlum taxallusi bilan e’lon qilingan. Maqolada Toshkent shahar dumasiga navbatdagi qayta saylov o‘tkazish masalasi ob’ekt qilib olingan. Unda eskilikni yoqlovchi “Ulamu” jamiyati, taraqqiyparvarlardan iborat “Sho‘royi islomiya” jamiyati va bolsheviklar orasidagi nomzodlik uchun kurash masalalari o‘z aksini topadi. Qodiriyning yozishicha: “Katta sallalik mullalar, zo‘r qorinlik boylar qo‘llarida dasta-dasta o‘z saylov no‘mirlarin olib baland ovoz ila o‘tkan-ketganlarga o‘z no‘mirlarin targ‘ib qilmakda, hattoki “Uchinchini olmagan kofir! O‘nunchini xohlagan badmazhab!” deb qichqirmakda edilar. Bu zotlarning hadlaridan buncha tajovuz qilganlarig‘a taassuf chekib, uchastka eshikig‘a yetdim” [Mazlum, 1917; 2].

“Bu yerda qo‘llarida uchunchi no‘mir qog‘oz ushlangan mullalar va mahalla imomlari dastlab bo‘lub, kontro‘l ravishida tekshirib, agarda uchunchi tarafdori bo‘lsa xo‘b, o‘nunchi bo‘lsa necha xil mazammamat (tubanlik) ila qo‘lidan konvertin olib, o‘z qo‘llaridagi uchunchi joylangan konvertni bermakda edilar. Saylov butun bosqunchilik holin olgan edi”.

Ko‘rinayapdiki, A.Qodiriy saylovda katta sallalik mullalarning odamlarga qarata targ‘ibotlarini kuchaytirganliklariga e‘tibor qaratadi. Ular agarda shu masalani hal qilmasalaring kofir bo‘lasanlar deb fuqarolarga majburiyatlar yuklab qo‘ydilar. Ularning bunday tajovuzkarona harakatlarini ko‘rgan muallif ham tashvishga tushadi.

Abdulla Qodiriyning aytishicha, “bu saylovimiz yashirin, tekiz, har kishining xohishicha bo‘lmay, ulamo, boy va maxdumlar bosqinchiligi ostinda ijro etildi”, deb saylovning adolatsizlarcha o‘tganini tanqid ostiga oladi. Chunki, saylov o‘tkazishda hurriyat va huquqqa qarshi bo‘lgan eskilik tarafdorlarining ko‘pligi hammani hayratga solganligi tasvirlanadi.

Behbudiyning ayni davrdagi saylov orqali Turkiston o‘lkasidagi chiqishlari diqqatga sazavordir. Uning “Duma va Turkiston” maqolasi ham aynan saylov muammolarini o‘zida mujassamlashtirgan. Undagi asosiy masala – Turkistonning kelajagi uchun saylovlarni o‘tkazish orqali islohatlarni amalga oshirishdir. Oldinga qarab intilish natijasida yutuqlarni qo‘lga kiritish kerakligi aytiladi. Ya’ni “diniy va dunyoviy va zamoniy va iqtisodiy, moliy va siyosiy, xulosa, jami’ barcha diniy va dunyoviy ishlarni taraqqiy qildirmoq uchun har birini to‘g‘risig‘a bahs-munozara va muzokara kerak va agar sukut ila o‘tkarilsa, har tarafdin siqilib va qisilib, olloh saqlasun, o‘n-yigirma yillardan so‘ngra din va maishatimizg‘a ko‘p futurlar kelar. Tadriji din va dunyolikda xor va zaifroq bo‘larmiz”, deydi. Shuning uchun dumaga saylanadigan nomzodlar masalasiga alohida e‘tibor qaratish, ular ham mahalliy millat, xalq vakillaridan bo‘lishi maqsadga muvofiqligi aytiladi. “Birinchii dumag‘a bizdan vakil borgan yo‘q. Ikkinchig‘a bordi va ammo oz. Turkistonni besh oblastig‘a o‘n milliyong‘a yaqin musulmon 6 nafardan vakil talab qilinib erdi. Hanuz bizni dard va talabimizni bayon qilinmasdan ilgari ikkinchi дума vakillarini so‘zi fuqaro nafi va hukumat zararig‘a bo‘lgan uchun va ba‘zi vakillarini fikri balki din va hukumatni buzmoqchi bo‘lgani uchun qoldilar. Uchunchi дума uchun saylov qoidasi e‘lon qilindi. Biz, turkistonliklar va Sibir xalqlarini uchunchi dumag‘a vakil yubormoqdan vaqtincha mahrum qilinubdur”.

Behbudiy ayni paytda, mamlakatning taqdirini, mahalliy millat, xalq taqdirini dumaga qo‘yilayotgan masalalarning hal etilishiga qaratadi. Dumada mahalliy xalqning ishtirok etmayotganligidan qayg‘uradi. Chunki, u deydi: “Uchunchi дума birinchii noyabrdan ochilib yana rus, yahudiy, polyak, armani, xulosa, 400dan ziyoda har xil vakillar va to‘rt-beshg‘ina tatar vakillari Rusiyadagi bir yuz o‘ttiz milliyon xalqni diniy va dunyoviy tiriklig‘a tegishli ishlar to‘g‘risinda muzakora qilishib, yangi nizom va zakunlar chiqaradilar va yoyinki, hukumatning alarg‘a topshurgan yangi zakun loyihalarini bahs-munozara qilishib, ba‘zi rad va aksarini mustahkam qiladurlar. Ya’ni uchunchi дума barcha Rusiya tabaasi uchun yangi nizomlar chiqaradurlar”[Behbudiy M., 2018; 286].

Behbudiy dumada amalga oshirilayotgan boshqa ilg‘or millat vakillarining islohotlariga havas bilan qaraydi. Ularning yangi qonunlarni amaliyotga joriy etishlarini g‘urur bilan keltiradi. Chunki, ularning o‘z manfaatlarini uchun qilayotgan harakatlari Behbudiyini tashvishga soladi. Chunki, ularning chiqarayotgan qonunlari mahalliy xalq vakillarining manfaatlarini ifoda etmasligiga achinadi. Behbudiy

aytadiki: “Diniy va dunyoviy ishi davlat dumasig‘a topshirilgandurki, anda bir murofaa emas, muhorabayi ma’naviy maydoni ko‘rinur. Har toifani hayot va mamot oyandasi dumag‘a bog‘liqdur. Bizni oyandag‘a baxtlik va yo baxtsiz bo‘lishimiz Duma ixtiyorindadir” [Behbudiy M., 2018; 287].

Natijada Behbudiy Turkiston o‘lka xalqiga murojaat etib, agarda kelajak uchun ishlamasak, bora-bora shariat va maishatimiz qo‘limizdan ketar, deydi. “Ey Turkiston musulmonlari, birodarlar, ibrat nazari ila boqing, holimiz nadur, bu kun bu ishda sa’y qilmasak, ertag‘a din va maishatimizg‘a zarar kelar, so‘ngra ilojsiz qolurmiz”, – deydi [Behbudiy M., 2018]. Abdulla Qodiriyning maqolalarini o‘qir ekanmiz, unda Behbudiyning millat uchun boshlagan harakatlari, jasoratining davomini ko‘ramiz. Behbudiy o‘zining chiqishlarida saylov orqali vakillarni yuborib, hukumatda mamlakatning xalqi muammolarini hal etishni istagan bo‘lsa, Qodiriy “Saylovmi, bosqinchilikmi?” maqolasi orqali eski hukumatning zolimlari saylovda fuqarolar huquqlarini paymol etayotganrini, ularning hurriyatga to‘sqinlik qilayotganini yozadi. Ya’ni, maqolada shahar dumasiga qayta saylov o‘tkazilish tafsilotlari tasvirlanadi. Saylovda eskilik tarafdorlari bo‘lgan “Ulamu” jamiyati, taraqqiyparvarlarning “Sho‘royi islomiya” jamiyatlari va bolsheviklar orasida nomzodlik uchun kurash jarayonlari tasvirlanadi.

“Shodmarg” maqolasida esa, A. Qodiriy Behbudiyning “Duma va Turkiston”da aytgan fikr-qarashlarini rivojlantirganini ko‘ramiz. Behbudiy maqolasidagi asosiy qahramon – Turkiston o‘lka millat vakili, xalqidir. U Turkiston o‘lkasi xalqini o‘qitish, bilimli qilish, tillarni o‘rgatish, huquqqa ega bo‘lish, dumada ovoz egallash masalalarini qo‘yadi.

A.Qodiriyning qahramoni Behbudiyning qahramoniga qaraganida, Turkiston o‘lkasida islohot uchun kurashuvchi real shaxs hisoblanadi. U – Turkiston o‘lkasidagi mavjud tuzumga qarshi bora oladigan, kurashadigan milliy qahramon. Ya’ni XX asr boshlarida o‘tkazilayotgan qozi saylovlaridagi nohaqliklarni ko‘rgan. Qodiriy yozganidek: “Bir vaqt mulla Karim hoji oxundning shahrida qozi saylovi bo‘lg‘on edi (bu vaqt qirq yoshlarda edi). Savdogar qozilar ellikboshlarga va hokimlarga minglab, yuzlab pora tikib, qozilikni sotib olg‘ach, bizning Karim hoji qozi bo‘lg‘uvchilar ila etishgan va ularni “xoinlar, zolimler, zolim yordamchilari!” deb qichqirgan edi”. Ko‘rinyaptiki, Qodiriyning milliy qahramoni nohaqliklarni ko‘raolmasdan ularni xoinlar, zolimler deb aytadi. Soxta saylov orqali qozilikka kelganlar Karim xojini ustidan ariza yozib, hukumatni va ularning a’zolarini zolimlikda ayblashganini vaj qilib, uni qamattirdilar. Qodiriyning qahramoni jamoat uchun, xalqning kelajagini hal qiluvchi saylov ishi uchun jonini berib bo‘lsa-da, to‘g‘rilik uchun kurashadi. Ya’ni, hukumatni zolim debsan deya so‘ralganida: “Juda to‘g‘ri dedim, chunki hukumat jamoatning saylag‘an kishisini jamoat ishiga kiritmaydilar, o‘z tilovinha ish yuritadir. Jamoat biror foyda-zararni ajratuvchini saylovga qaror bersa, darrov hukumat va hukumat bo‘rilari sapchiydilar”, – deydi.

XX asrning boshlarida imperiyaning mashinasi nihoyat darajada avjga chiqqan ediki, Behbudiy ma’rifatparvarlik kontseptsiyasi orqali o‘lkani qutqarish g‘oyasini ilgari surgan bo‘lsa, Cho‘lpon bu ma’rifatparvarning zotning izidan borib, ozodlik

uchun xalqni kurashga chorladi. Chunki, “chor Rusiyosi tomonidan O‘rta Osiyoga uyushtirilgan istilo barobarida turli-tuman maqsadlarni ko‘zlab uyushtirilgan ilmiy yurishlar ham hatto savdo-sotiq aloqalari ham oxir-oqibatda bir maqsadga – bosqinchilik va mustamlakachilik siyosatiga xizmat qilardi” [Hasaniy M., 1992; 15]. Behbudiy “Ilmning foydasi”, “Saylovlar haqida”, “Gosudarstvennaya дума – millat majlisi xususida”, “Millat vazifasi”, “Duma va Turkiston”, “Bayoni hol”, “Oh va hasrat”, “Ehtiyoji millat”, “Millatlar qanday taraqqiy etarlar”, “Turkiston muxtoriyati” kabi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-huquqiy publitsistik maqolalari orqali “haq olinur, berilmas” degan g‘oyasi yo‘lida kurashdi.

Cho‘lpon esa “Xalq”, “Men qochmadim”, “O‘tli suv”, “Buzilgan o‘lkaga”, “Amalning o‘limi”, “Erkinlik istagi”, “Binafsha”, “Tun”, “Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasi”, “Ko‘ngil” she‘rlarida millatning erkin, ozod bo‘lishini istadi, qolaversa, millatning qayg‘uda ekanligidan qayg‘urdi. U “Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir” shiori ostida millatning kuchiga ishonadi, uning kelajagiga katta umid bog‘ladi. Behbudiy boshlab bergan Turkistonni ozod qilish g‘oyasi uchun harakat qildi. U dastlab “Turkiston qarindoshlarimizga” [Cho‘lpon A., 1997; 38] she‘rida Behbudiyning “Padarkush”idagi ilmsizlik fojiasini she‘riy usullarda davom ettirdi. Ya‘ni:

*Ilm-u maorif ham hunardan qoldi mahrum bizni xalq,
Ma‘rifatsizlik balosiga yo‘luqg‘on bizni xalq.
Maktab o‘rniga ochildi har mahallada mayxona,
Nafrat etmak nari tursun, shod-u xandon bizni xalq.*

Behbudiyning “Padarkush”idagi Artun dramada kazzob bolalarining ko‘payishiga bosh sababchi. Chunki u ochgan mayxona yoshlarni tarbiyasizlikka yetaklaydi. Yaxshilikka emas, faqat yomonlikka sudraydi.

Bezori bolalarni bir joyga yig‘ib turgan kuch – Artun. U axloqiy buzuvchilikning boshida turuvchi shaxs. Artun omi oliftalarni aldaydi. Chunki u pivoni ko‘paytirib sotib, musulmon bolalarini yo‘ldan uradi, bu ham yetmaganday qo‘shmachilik ham qiladi. U ataylab boylik orttirish maqsadida Lizaxondan buyum sifatida foydalanadi. Pivoxonani u shum maqsadlarini amalga oshirish uchun tashkil qilgan. Yoshlar tarbiyasi buzilayotgani Artun va Lizani mutlaqo qiziqtirmaydi. Oliftalar Artun va Lizaxonlar talab qilgan pulni topish uchun o‘g‘irlik yo‘liga o‘tishga majbur bo‘lishadi.

Behbudiy har bir bola o‘z ota-onasi va oilasiga dushman demoqchi emas, unda ota-ona bilan bola o‘rtasiga rahna solish maqsadi yo‘q. Ammo bola tarbiyasida ota-ona mas‘uliyati, bolaning jismoniy-ma‘naviy kamolatida ota-ona tanlagan tarbiya usulining o‘rni alohida ahamiyatga molik ekanligini ta‘kidlash bor. Dramada faqat ilmsizlik, ma‘rifatsizlik, savodsizlik orqasidan kelib chiqadigan johillik va ongsizlik tufayli ro‘y beradigan jinoiy ishlarga qarshi nafrat uyg‘otish, odamlarni ogohlantirish ko‘zda tutilgan. Agar Ziyoli va Domla so‘zlariga amal qilib, Boy o‘z bolasini o‘qitganida, Toshmurod, avvalo, yomon doiraga, ya‘ni Nor, Davlat, Tangriqul kabi kazzoblarga qo‘shilmas, mayxonalarga bormas, Artun va Lizalarga duch kelmasdi.

Cho‘lponning she‘rida qayd qilinganidek, mahallalarda ham mayxonalarning

ochilishiga mana shu Artunlar sababchi bo‘ldi. Ya’ni Cho‘lpon yozganidek:

*Bo‘ldilar boy artunlar piva sotmaklik ila,
Topg‘oniga olub ichkay, xor bo‘lg‘oy bizni xalq.*

Cho‘lpon boshqa millatlarning ma’rifat yo‘lida madrasa, ilm dargohlari qurishlarini aytib, bizning millat “topg‘oniga olib ichkay, xor bo‘lg‘oy” deb qayg‘uradi.

Cho‘lpon asarlarida Turkiston mavzusi nihoyatda rang-barang badiiy tasvirlarda taqdim etiladi. Uning “O‘zbeklar ham Turkiston”, “Go‘zal Turkiston”, “Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasi”, “Buzilgan o‘lkaga”, “Kim xor” kabi she‘rlarida Turkiston o‘lkasining qayg‘uli manzarasi, ya’ni Turkiston Muxtoriyati amalga oshmaganidan keyingi tuyg‘ulari millat dardi sifatida tasvirlanadi. Bu yo‘nalishda muallifning “Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasi” she‘ri alohida ajralib turadi. Ushbu she‘r Mahmudxo‘ja Behbudiyning 1919-yili vahshiyona o‘ldirilganidan keyin o‘sha yilda yozilgan. Ushbu she‘r Cho‘lponning Mahmudxo‘ja Behbudiyga bo‘lgan chuqur ehtiromini ko‘rsatadi. Turkiston yo‘lboshchisi, jadidlarning otasi, millatning boniysi bo‘lgan Behbudiyning o‘limi Cho‘lponni og‘ir qayg‘uga soldi. Chunki, madfun, zolim chor hukumatining ayyorona siyosatini anglab yetgan Behbudiy o‘zining kuchli bilmi bilan bas kela olar va ko‘p ishlarga ko‘ksini qalqon qilgan edi. Chor hukumatining o‘rniga bolshevistik hukumati kelgani bilan hech narsa o‘zgarmadi. Turkiston millatiga va uning millatparvarlariga nisbatan har ikkalasining ham qarashi birdek – zolimona edi. Behbudiy shu ikki tuzumning qurboni bo‘ldi. Cho‘lponning Behbudiy xotirasini alam bilan eslaydi:

*Belgisiz qabringni qora tunlarda
Amalimning sham‘in yoqib izladim.
Qizil va pok qonning islarin sochgach,
Kuchsiz ko‘yi yurishimni tezlatdim.*

Shoirning ko‘nglidagi tuyg‘ularida kechayotgan alamlar uning ko‘nglini qora tun kabi qoraytirgan, sham yoqib ham bu ko‘nglini yoritib bo‘lmasdi. Turkiston karvonboshisining o‘ldirilganini his etganidan, qizil qonning islarini sezganidan keyin kuchsiz va holsiz bir ahvolda yurishi, harakati, o‘ylari yanada tezlashdi va ilgariga intildi.

*Amalimning yulduzikim, ko‘z tikdi
Qora, jirkanch o‘lim koni yerlarga.
Savol berdim: “Yo‘qotganim qayda?” deb
O‘zimni ham yutmoq bo‘lgan erlarga.*

Turkistonning yulduziga, yo‘lboshchisiga alamli qora niyatlilar ko‘z tikkan ekanki, ular millatning dushmanlari, o‘zlarining jirkanchli niyatlarini amalga oshirdilar, o‘limning domi – yerlarga kirgizdilar. Shoir hatto uni ham nishonga olgan va yutib yubormoqchi bo‘lgan bu millat kushandalariga qarab: “Yo‘qotganim qayda” deb bor kuchi bilan so‘raydi.

*Qo'lingizni tutam-tutam gullari
Qabringizni topib sochmoq uchun tirishdi;
Gul o'rniga zahar tilar muhitda
Uning qilgan bu ishlari bo'sh ishdi.*

Qabringizni topib, ruhingizni shod etib, qo'limdagi tutam-tutam gullarni qabringiz ustiga sochmoqchi bo'lib, shuncha tirishsam ham bu muhitning ajdaholari gul o'rniga meni zaharlar bilan kutib oladilar. Ammo, bilamanki, ularning qilayotgan bu ishlari bo'sh, ular baribir puchga bo'ladi.

*Men-da ojiz u muhitning oldida
Qabringizni topib ko'z yoshimni to'kma.*
*Hamda achchiq hiddatim-la ul yerda
Oq kallalik – qora devni so'kma.*

Shunchalarki, bu muhitning oldida men ham o'zimni ojiz his qilayapman, hatto ko'z yoshlarimni to'kma uchun qabringizni topa olmay ovoraman. O'zim ham u yerda g'azab otiga minganmanki, qora dev hisoblangan oq poshshoni so'kish shiddatidaman.

*Shuning uchun yulduz kabi yarqirab
Elda qolgan isming bilan turamen.
Shul ismni eslab, chizgan yo'lingdan
Yiroq ketmay, qimirlamay yuramen.*

Sizning yulduzdek yarqirab, porlab turgan ruhingiz, elimizning hurmatida bo'lgan nomingizni qalbimda saqlayman. Bu nomni har doim eslab, sizning ko'rsatgan ishlaringiz va chizgan yo'lingizdan chekinmasdan, toymasdan, qimirlamay izingizdan boraman. Bu – zamondoshning, shogirdning, millatdoshning va'dasi hamda ustoziga bo'lgan e'tiqodi!

*Aziz otam, qo'limdagi gullarning
Motom guli ekanini bilmaysan,
Shodlik guli ko'pdan beri so'lganin
Yer ostida, pok ruhing-la sezmayman.*

Shoir Behbudiya aziz otam, deb murojaat qiladi. U Behbudiya qo'lganiga ishonganidan buyon o'zini yomon his etadi. Mening qo'limda motam guli turibdi, deb aziz ota bilan ruhan suhbatlashadi, o'zining dardini aytadi. Bilmaysizki, ko'nglimda shodlik, quvnoqliklar yo'qolgan. Siz yer ostida, pok ruhingiz bilan sezmaganda holda yotibsiz, deydi. Bilingki, mening qo'llarimdagi gullar sizning qabringizga qo'yish uchun, sizning ruhingizni shod qilish uchun edi. Bu gullarni qo'ya olmadim, chunki qabringiz yo'q, uni sohib yubordim, ushbu gullarni terish uchun va sizning niyatlaringizni amalga oshirish uchun millatni chaqiraman! – deydi shoir.

XULOSA

Qodiriyning qahramoni Karim hoji jabrlarni ko'rdi. Uning yoshi ham bir joyga

bordi. Har kuni u o'g'lidan yangi xabar kutar edi. Ayni kunda o'g'li: *“Suyunchi bering ota! Xalq va askar bir bo'lib, hukumatni o'rnidan tushurgan, hamma ish xalq qo'liga o'tgan, eski hukumat ma'murlari o'rnidan tushurilib, qo'lga oling'an, ministrlar ham hibs etilg'on, podsho ham qamalga'on, hurriyat e'lon qiling'on, dedi”*.

Qodiriyning qahramoni Karim hoji ota: – Hurriyat, deb orqasiga yiqildi. Muallifning qahramoni xo'rsandchilikdan, sevinchi ichiga sig'maganidan ya'ni shodmarg bo'ldi.

Xullas, Behbudiyning qahramoni orzu qilgan istiqloolni Qodiriyning qahramoni ko'rdi. Chunki u butun umrini hurriyat uchun kurashga bag'ishladi. Hurriyat yetib kelganidan, shodligidan yorilib o'ldi. Ammo u niyatiga yetdi. Chunki, uning xalqi hurriyatga erishdi.

Cho'lpon ham va'dasiga sodiq qoldi. U Behbudiya bergan so'zining ustida turdi, o'zining bor kuchini, bor imkoniyatini millatni o'yg'otishga sarfladi.

Behbudi “Bayoni haqiqat”da aytganidek, “haq olinur, berilmaydur”. Demakki, haqni hech kim berib qo'ymaydi, millatning o'zi kurashib unga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aliyev, A. (2000). *Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat*. Toshkent: “Akademiya” nashriyoti.
2. Andreyev, G. (1915 god, 23 sentabrya). Sartovskiy teatr “Baxtsiz kiyau” drama v' ix' deystviyax' iz' jizni Turkestanskix' musulman' Abdulla Kadiri. *Turkestanskaya vedomosti*.
3. Behbudi, M. (1913-yil, 3-sentabr). Moziy – istiqbolning tarozisidir. *“Samarqand”* gazetasi.
4. Behbudi, M. (2018). *Tanlangan asarlar* (1-jild). Toshkent: “Akademnashr” nashriyoti.
5. Cho'lpon, A. (1997). *Go'zal Turkiston*. Toshkent: “Ma'naviyat” nashriyoti.
6. Hasaniy, M. (1992). *Turkiston bosqini*. Toshkent: “Nur” nashriyoti.
7. Julqinboy. (1919-yil, avgust). Dumbasi tushib qolgan emish. *“Ishtirokiyun”* gazetasi.
8. Julqinboy. (1919-yil, avgust). Qimmatchilik hasrati. *“Ishtirokiyun”* gazetasi.
9. Julqinboy. (1920-yil, 20-fevral). Tilanchilik yoxud yengil kasb. *“Ishtirokiyun”* gazetasi.
10. Julqinboy. (1922-yil, 28-aprel). Azob boqchasida yig'i – sig'i kechasi. *“Qizil bayroq”* gazetasi.
11. Julqinboy. (1922-yil, 16-iyun). Haqiqat - ochib so'zlashdir. *“Qizil bayroq”* gazetasi.
12. Julqinboy. (1922-yil, 17-sentabr). Layli va Majnun. *“Turkiston”* gazetasi.
13. Julqinboy. (1922-yil, 26-avgust). Mochalov. *“Qizil bayroq”* gazetasi.
14. Julqinboy. (1922-yil, 13-may). Qazoyi osmoniylar. *“Qizil bayroq”* gazetasi.
15. Julqinboy. (1922-yil, 4-avgust). Qurbonlik o'g'rilari. *“Qizil bayroq”* gazetasi.
16. Julqinboy. (1923). Dardi yo'q – kessak, ishq yo'q – eshshak. *“Mushum”* jurnali, 5.
17. Julqinboy. (1923). Kalvak maxzumning xotira daftaridan. *“Mushum”* jurnali, 16.
18. Mazlum. (2017-yil, avgust). Saylovmi, bosqinchilikmi?. *“Ulug' Turkiston”* gazetasi.
19. Olvort, E. (2009). Birinchi o'zbek dramasi. *“Jahon adabiyoti”* jurnali, 9. Toshkent.
20. Qodiriy, A. (1915). Fikr aylag'il. *“Oyina”* jurnali, 12.
21. Qodiriy, A. (1915-yil, 20-mart). To'y. *“Sadoyi Turkiston”* gazetasi.
22. Qodiriy, A. (1980). *O'tkan kunlar*. Toshkent: “O'qituvchi” nashriyoti.
23. Qodiriy, A. (1985). *O'tkan kunlar*. Toshkent: “O'qituvchi” nashriyoti.
24. Qodiriy, A. (2017). *Diyori bakr* (3-jild). Toshkent: “Info Kapital Grup” nashriyoti.
25. Qodiriy, A. (2017). *O'tkan kunlar* (1-jild). Toshkent: “Info Kapital Grup” nashriyoti.
26. Qodiriy, A. (2019). *O'tkan kunlar*. Toshkent: “Yangi davr avlodi” nashriyot uyi.
27. Qosimov, B. (2006). *Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti*. Toshkent.
28. Rizayev, Sh. (1997). Jadid dramasi. Toshkent: “Sharq” nashriyoti.
29. Samoylovich, A. (1917). Dramaticheskaya literatura sartov. *Vestnik*, 5.

REFERENCES

1. Aliyev, A. (2000). *Spirituality, value and artistry*. Tashkent: 'Academy' Publishing House.
2. Alworth, E. (2009). The first Uzbek drama. *Magazine of 'World Literature'*, 9. Tashkent.
3. Andryev, G. (1915, September 23). Sartov theater 'Unhappy groom' drama in action from the life of Turkestan Muslim Abdullah Qadiri. *Newspaper of 'Turkistan News'*.
4. Behbudi, M. (1913, September 3). Moziy is the scale of perspective. *Newspaper of 'Samarkand'*.
5. Behbudi, M. (2018). *Selected works* (Vol. 1). Tashkent: 'Akademnashr' Publishing House.
6. Cholpon, A. (1997). *Beautiful Turkestan*. Tashkent: 'Spirituality' Publishing House.
7. Hasani, M. (1992). *Invasion of Turkestan*. Tashkent: 'Nur' Publishing House.
8. Julqinboy. (1919, August). It seems that the butt has fallen. *Newspaper of 'Ishtirokyun'*.
9. Julqinboy. (1919, August). The cost of living. *Newspaper of 'Ishtirokyun'*.
10. Julqinboy. (1920, February 20). Begging or light work. *Newspaper of 'Ishtirokyun'*.
11. Julqinboy. (1922, April 28). In the garden of agony, it is the night of crying. *Newspaper of 'Red Flag'*.
12. Julqinboy. (1922, August 26). Mochalov. *Newspaper of 'Red Flag'*.
13. Julqinboy. (1922, August 4). Sacrifice thieves. *Newspaper of 'Red Flag'*.
14. Julqinboy. (1922, June 16). Truth is speaking out. *Newspaper of 'Red Flag'*.
15. Julqinboy. (1922, May 13). Heavenly people. *Newspaper of 'Red Flag'*.
16. Julqinboy. (1922, September 17). Leila and Majnun. *Newspaper of 'Turkistan'*.
17. Julqinboy. (1923). From the memory of Kalvak Makhzum. *Magazine of 'Mushtum'*, 16.
18. Julqinboy. (1923). There is no pain - if we cut it, there is no love – it's a donkey. *Magazine of 'Mushtum'*, 5.
19. Kasimov, B. (2006). *Uzbek literature of the period of national renaissance*. Tashkent.
20. Mazlum. (2017, August). Is it an election or an invasion? *Newspaper of 'Great Turkistan'*.
21. Qadiri, A. (1915). The idea is different. *Magazine of 'Oyina'*, 12.
22. Qadiri, A. (1915, March 20). Wedding. *Newspaper of 'Voice of Turkistan'*.
23. Qadiri, A. (1980). *Days gone by*. Tashkent: 'Teacher' Publishing House.
24. Qadiri, A. (1985). *Days gone by*. Tashkent: 'Teacher' Publishing House.
25. Qadiri, A. (2017). *Days gone by* (Vol. 1). Tashkent: 'Info Capital Group' Publishing House.
26. Qadiri, A. (2017). *Diyori Bakr* (Vol. 3). Tashkent: 'Info Capital Group' Publishing House.
27. Qadiri, A. (2019). *Days gone by*. Tashkent: 'New Age Generation' Publishing House.
28. Rizayev, Sh. (1997). *Jadid drama*. Tashkent: 'East' Publishing House.
29. Samoylovich, A. (1917). Dramatic literature of the Sarts. *Messenger*, 5.